



(dastlabki ma'lumotlar)

Farg'ona viloyatida kichik tadbirkorlik

2019 yil yanvar – dekabr

2019 yilning yanvar – dekabrida kichik tadbirkorlikning YaHMdagи ulushi **67,0 %**ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga, **12,2** birlikni tahskil qildi.

2019 yilning yanvar – dekabrida **6,7** mingta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **1,8** martaga ko'p.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar savdoda 3006 ta, sanoatda 1660 ta, qurilishda 493 ta, yashash va ovqatlanishda 430 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 267 ta, tashish va saqlashda 260 tani tashkil etilgan.

2019 yil yanvar - dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Savdo
44,8



Sanoat
21,0



Qurilish
9,4



Yashah va ovqatlanish
bo'yicha xizmatkar
6,4



Qishloq, o'rmon va baliq
xo'jaligi
4,0



Tashish va
saqlash
3,9

**2019 yilning yanvar - dekabrida kichik tadbirkorlikning
asosiy ko'rsatkichlari**

	O'Ichov birligi	2018 y.	2019 y.	(+/-)
Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni	birlikda	23304	29300	5996
Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni	birlikda	3780	6721	2941
Kichik tadbirkorlikning ulushlari:				
YalM	%	70,7	67,0	-3,7
Sanoat	%	39,4	43,6	4,2
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	%	97,1	97,5	0,4
Investitsiya	%	54,3	60,6	6,3
Qurilish	%	92,0	87,6	-4,4
Savdo	%	88,3	88,4	0,1
Xizmatlar	%	74,6	71,8	-2,8
Yuk tashish	%	95,6	95,8	0,2
Yuk aylanmasi	%	96,0	96,0	0,0
Yo'lovchi tashish	%	94,3	94,8	0,5
Yo'lovchi aylanmasi	%	95,6	96,1	0,5
Eksport	%	45,7	53,5	7,8
Import	%	54,7	77,3	22,6



2019 yilning yanvar - dekabrida kichik tadbirkorlikning tarmoqlar bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari, %



2019 yilning yanvar – dekabrida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha eng ko'pi Farg'ona shahrida – 1061 ta, Qo'qon shaharda – 802 ta, Marg'ilon shaharda – 650 ta. Quva tumanida – 406 ta, Oltiariq tumanida – 387 ta va Dang'ara tumanida – 333 tani tashkil etgan. Shuningdek, eng past ko'rsatkich So'x tumanida – 92 tani tashkil etilgan.


**Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona
va mikrofirmalar**

	2018 yil yanvar – dekabr	2019 yil yanvar – dekabr	(+)
Farg'ona viloyati	3780	6712	2932
Oltiariq	219	387	168
Qo'shtepa	85	204	119
Bag'dod	109	245	136
Buvayda	192	318	126
Beshariq	113	204	91
Quva	168	406	238
Uchko'prik	210	324	114
Rishton	114	260	146
So'x	74	92	18
Toshloq	159	274	115
O'zbekiston	187	314	127
Farg'ona t.	128	330	202
Dang'ara	139	333	194
Furqat	99	154	55
Yozyovon	78	125	47
Farg'ona sh.	676	1061	385
Qo'qon sh.	525	802	277
Quvasoy sh.	157	229	72
Marg'ilon sh.	348	650	302

2019 yil yanvar - dekabr holatiga hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulush Farg'ona shahri - 15,8 %, Qo'qon shahar - 11,9 %, Marg'ilon shahar - 9,7 %, Quva tumani - 6,6 %, Oltiariq tumani - 5,8 %, Dang'ara tumani - 5,0 %, Farg'ona tumani - 4,9 %, Uchko'prik tumani - 4,8 %. Buvayda va O'zbekiston tumanlarida 4,7 % ni tashkil etdi.



**2019 yil yanvar-dekabr holatiga yangi tashkil topgan
kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar
bo'yicha ulushi, %**



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

	2018 yil yanvar-dekabr	2019 yil yanvar-dekabr	(+;-)
Jami	3780	6712	2932
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	248	267	19
Sanoat	1155	1660	505
Qurilish	462	493	31
Savdo	889	3006	2117
Tashish va saqlash	178	260	82
Yashash va ovqatlanish bo'yicha	229	430	201
Axborot va aloqa	88	94	6
Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	119	105	-14
Boshqa faoliyat turlari	412	397	-15

Ma'lumot uchun: 2019 yilning yanvar – dekabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i:




**Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori
ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar**

	2018 yil yanvar-dekabr	2019 yil yanvar-dekabr	Farqi (+/-)
Farg'ona sh.	676	1061	385
Qo'qon sh.	525	802	277
Marg'ilon sh.	348	650	302
Quva tumani	168	408	238
Oltiariq tumani	219	387	168
Dang'ara tumani	139	333	194
Farg'ona tumani	128	330	202
Buvayda tumani	192	318	126

2019 yil yanvar – dekabrida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha eng ko'p salmog'i Farg'ona shahrida – 1061 ta.




**Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori
ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda**





Farg'ona viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar - dekabr holatiga*



2019 yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) hududlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Farg'ona shahrida 19,0 birlik, Qo'qon shahrida 16,4 birlik, Quvasoy shahrida 15,6 birlik. Marg'ilon shahar, Dang'ara va Furqat tumanlarida 14,4 birlikdan, Quva tumaniad 13,5 birlik, So'x tumaniida 12,5 birlikni tashkil etgan. Beshariq tumaniда esa ushbu ko'rsatkich eng past bo'lib 6,5 birlikga to'g'ri keldi.

* Kichik korxona, mikrofirmalar, fermer va dehqon xo'jaliklari



2019 yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha
faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining
soni (har 1000 aholiga, birlikda)*

2019 yil yanvar- dekabr

19,0 Farg'ona sh.

16,4 Qo'qon sh.

15,6 Quvasoy sh.

14,4 Dang'ara t.

14,4 Furqat t.

14,4 Marg'ilon sh.

13,5 Quva t.

12,6 So'x t.

12,5 Uchko'prik t.

11,7 Yozyovon t.

11,6 O'zbekiston t.

11,6 Toshloq t.

10,9 Rishton t.

10,5 Oltiariq t.

9,9 Farg'ona t.

9,7 Bag'dod t.

8,3 Qo'shtepa t.


8,1 Buvayda t.

6,5 Beshariq t.

* Kichik korxona, mikrofirmalar, fermer va dehqon xo'jaliklari



2019 yilning yanvar-dekabrida shahar va tumanlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)




2019 yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) tuman va shaharlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Farg'ona shahrida 19,0 birlik, Qo'qon shahrida 16,4 birlik, Quvasoy shahrida 15,6 birlik, Marg'ilon shahar, Furqat va Dang'ara tumanlarida 14,4 birlik, Quva tumanida 13,5 birlik, So'xi tumanida 12,6 birlik, Uchko'prik tumanida esa 12,5 birlikni tashkil etdi.

**Kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushining pasayishi
dinamikasi yanvar - dekabr holatiga, %**


2019 yilning yanvar - dekabrida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi lushi 67,0 %ni tashkil qildi. (2018 - yilning yanvar - dekabrida 70,7 %).

YaHM tarkibida pasayishi yirik korxonalar ulushi oshishi bilan tushuntiriladi.


2019 y.



2018 y.




**Kichik tadbirkorlikning ulushi
(umumiy hajmiga nisbatan %da)**





**2019 yilning yanvar- dekabrida kichik
tadbirkorlikning tarmoqlar bo'yicha asosiy
ko'rsatkichlari, %**



**2019 yilning yanvar - dekabrida kichik tadbirkorlikning
hududlar kesimida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, (%)**

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiya
Farg'ona viloyati	43,6	87,6	71,8	60,6
Oltiariq	100,0	99,5	96,4	74,9
Qo'shtepa	100,0	99,7	99,5	77,8
Bag'dod	58,2	94,8	97,8	78,3
Buvayda	100,0	98,8	99,2	87,7
Beshariq	65,7	36,9	96,9	12,1
Quva	55,8	99,6	94,1	88,9
Uchko'prik	95,5	97,8	97,4	91,6
Rishton	62,1	98,9	94,9	61,4
So'x	100,0	98,9	98,9	38,9
Toshloq	13,8	99,3	98,0	80,7
O'zbekiston	89,5	99,4	98,8	96,3
Farg'ona t.	89,3	90,1	86,5	82,8
Dang'ara	100,0	94,6	96,8	90,6
Furqat	100,0	99,7	99,4	82,3
Yozyovon	100,0	59,4	99,4	41,5
Farg'ona sh.	28,6	90,3	45,7	36,7
Qo'qon sh.	28,2	68,7	88,4	43,8
Quvasoy sh.	32,0	95,9	95,8	43,3
Marg'ilon sh.	84,4	99,9	97,2	94,0

Hududlar bo'yicha **sanoat** yo'nalishida yuqori ulushni Oltiariq, qo'shtepa, Buvayda, So'x, Dang'ara, Furqat, Yozyovon tumanlari (100 foizdan) tashkil etdi.

Qurilishda - Marg'ilon sh. (99,9 %), Qo'shtepa (99,7 %), Furqat (99,7 %), Quva (99,6 %), Oltiariq (99,5 %) va O'zbekiston (99,4%) tumanlari tashkil etadi.

Xizmatlar sohasida Qo'shtepa (99,5%), Furqat (99,4%), Yozyovon (99,4 %), Buvayda (99,2 %), So'x (98,9 %), O'zbekiston (98,8 %) va Toshloq (98,0 %) tumanlari tashkil etadi.

Investitsiyada - O'zbekiston tumani (96,3 %), Marg'ilon shahar (94,0 %), Uchko'prik (91,6 %) va Dang'ara (90,6 %) tumanlari tashkil etadi.




Kichik tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan 2019 yilning yanvar-dekabrida

- 1 8490,2 mld. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi (jami sanoat ishlab chiqarishning 43,6 %);
- 2 5557,8 mld. so'mlik investitsiyalar (umumiyligi hajmining 60,6 %) o'zlashtirildi va 2018 yilning yanvar-dekabriga nisbatan 157,4 %ni tashkil etdi;
- 3 3560,3 mld. so'mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiyligi hajmining 87,6 %) bajarildi va 2018 yilning yanvar-dekabriga nisbatan o'sish sur'ati 110,4 %ni tashkil qildi;
- 4 8102,0 mld. so'mlik xizmatlar ko'rsatilib (viloyat jami xizmatlar hajmining 71,8 %), 2018 yilning yanvar-dekabriga nisbatan o'sish sur'ati 105,3 % ni tashkil qildi;
- 5 chakana tovar aylanmasi umumiyligi hajmining 88,4 % yoki 11944,2 mld. so'mi (o'sish sur'ati 105,1 %ni tashkil qildi) shakllantirildi;
- 6 307,1 mln. AQSH dollarari (umumiyligi eksport hajmining 53,5 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, bu esa 2018 yilning yanvar-dekabriga nisbatan 85,6 mln. AQSH dollariga yoki 38,6 % ga ko'p;
- 7 avtomobil transporti yuk aylanmasining 8,7 % ga (viloyat jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 96,6 %) ko'payishi ta'minlanadi;
- 8 yo'lovchi aylanmasining esa 2,1 % ga (umumiyligi yo'lovchi aylanmasining 96,1 %) ko'payishi ta'minlandi.




**Kichik tadbirkor sub'yektlari tomonidan amalga
oshirilgan eksport (tovar, xizmatlar)ning,
jami eksport hajmidagi ulushi, %**



2019 yil yanvar-dekabr holatiga hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlikdagi eksport (tovar, xizmatlar)ning jami eksportdagι eng ko'p ulushini Marg'ilon shahar, Yozyovon, Furqat, O'zbekiston, Buvayda, Qo'shtepa, Oltiariq, Bag'dod tumanlari 100 foizdan, eng past ko'rsatkich Qo'qon shahar – 9,2% va Toshloq tumanni – 15,3%ni tashkil etdi.




**Kichik tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan amalga
oshirilgan import (tovar, xizmatlar)ning,
jami import hajmidagi ulushi, %**



2019 yil yanvar-dekabr holatiga hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlikdagi import (tovar, xizmat)larning jami importdagi eng ko'p ulushi Oltiariq, Qo'shtepa, Buvayda, Uchko'prik, So'x, O'zbekiston, Furqat, tumanlarida 100 % ni, Dang'ara tumanida - 99,9 %, Yozyovon tumanida - 99,6 %, Beshariq tumanida - 99,5 %, Marg'ilon shahrida - 99,4 %, eng past ko'rsatkich Quvasoy shaharda - 74,2 %, Bag'dod tumanida - 66,9 %, Toshloq tumanida - 55,0 %, Farg'ona shaharda - 37,8 % ni tashkil etdi.



**2019 yilning yanvar - dekabrida hududlar bo`yicha
kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat
mahsuloti ishlab chiqarish hajmi**





Hududlar bo`yicha eng ko`p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Farg'ona shahar (1876,0 mlrd. so'm), Dang'ara tumani (777,4 mlrd. so'm), Qo'qon shahar (717,0 mlrd. so'm), Marg'ilon shahar (676,3 mlrd. so'm) va Quva tumani (452,8 mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri keladi. So'x tumanida (187,9 mlrd. so'm) ushbu sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.






**2019 yil yanvar - dekabr holatiga jami
sanoat mahsulotidagi kichik tadbirkorlikning
hududlar bo'yicha ulushi, %**



Huduqlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat maxsulotidagi eng yuqori ulushi Oltiariq, Qo'shtepa, Buvayda, So'x, Dang'ara, Furqat va Yozyovon tumanlari (100,0 %dan). Bundan tashqari, Uchko'prik tumani (95,5%), O'zbekiston tumani (89,5%), Far'ona rumani (89,3%), Marg'ilon shahar (84,4%), Besharig tumani (65,7%), Rishton tumani (62,1%) da kichik biznesning ulushi o'rta darajada bo'lib, Quva tumani (55,8%), Quvasoy (32,0%), Farg'ona (28,6%) va Qo'qon (28,2%) shaharlarida hamda Toshloq tumani (13,8%) da kichik tadbirkorlikning ulushi past bo'lib qolmoqda.




**2019 yilning yanvar - dekabrida hududlar bo`yicha
kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar
aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati**



Hududlar bo'yicha ko'proq chakana tovar aylanmasi hajmi Farg'ona shahri (2664,0 mln. so'm), Qo'qon shahr (1609,5 mln. so'm), Marg'ilon shahar (952,9 mln. so'm), Qo'shtepa (801,5 mln. so'm), Quva (620,8 mln. so'm), Uchko'prik (506,8 mln. so'm) va Oltiariq (504,1 mln. so'm)tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.



**2019 yilning yanvar - dekabrida hududlar bo'yicha
kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan
qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati**




Hududlar bo'yicha eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Farg'ona shahar (538,0 mlrd. so'm), Quvasoy shahar (271,3 mlrd. so'm), Marg'ilon shahar (236,5 mlrd. so'm), Farg'ona tumani (177,6 mlrd. so'm) Qo'qon shahar (167,5 mlrd. so'm), Dang'ara tumani (157,0 mlrd. so'm), Qo'shtepa tumani (154,9 mlrd. so'm) va Uchko'rik (117,6 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.





**2019 yilning yanvar - dekabrida hududlar bo`yicha
kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar
sohasi hajmi va o'sish sur'ati**




Hududlar bo`yicha eng ko`p xizmatlar hajmi Farg'ona shahri (2402,5 mlrd. so'm), Marg Farg'onailon shahar (1296,1 mlrd. so'm), Uchko Farg'onarik tumani (291,4 mlrd. so'm), Farg'ona tumani (262,0 mlrd. so'm), O'zbekiston tumani (252,3 mlrd. so'm) Quva (6066,2 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2019 yil IV chorak yakunlariga ko'ra, mikrofirma va kichik korxonalar tomonidan taqdim etilgan oxirgi yillik hisobotida mahsulot sotishdan sof tushumi mavjudlari bo'yicha tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda **1264** tadan ortiq respondentlar ishtirok etdi.


2019 yil IV - chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan mikrofirma va kichik korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi*




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning sanoatdagi ulushi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 2,9 % (37 ta.), sanoatda – 25,0 % (316 ta), qurilishda – 13,8% (174 ta) , savdoda – 27,6 % (349 ta), xizmatlar sohasida – 30,7 % (388 ta).

* yillik statistik hisobotga muvofiq mahsulot (ish, xizmatlar) sotishdan sof tushumga ega bo'lgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha.

**2019 yil IV chorak bo'yicha oxirgi yillik hisobotida mahsulot
sotishdan soʻf tushumi boʻlgan kuzatuvda ishtirok etgan mikrofirma
va kichik korxonalarining hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda**



**2019 yil IV chorak bo'yicha oxirgi yillik hisobotida mahsulot
sotishdan soʻf tushumi boʻlgan kuzatuvda ishtirok etgan mikrofirma
va kichik korxonalarining hududlar bo'yicha taqsimlanishi, %**




Kichik korxona va mikrofirmalarning 2019 yil IV choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (ish va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, barcha faoliyati turlaridagi korxonalarda qulay iqtisodiy ahvolning yaxshilanishida joriy yilning o'tgan choragiga nisbatan o'sish kuzatilmadi.

Shu bilin birga, barcha faoliyat turi korxonalarida umumiy iqtisodiy holatning ijobjiy bahosi pasayishi kuzatildi.

Joriy yilning IV choragida III chorakka nisbatan iqtisodiy holatni qoniqarsiz deb baholaydigan korxonalar qurilish korxonalarida (4,3 punktga) hamda xizmat ko'rsatish sohasi bilan shug'ullanuvchi korxonalarida 0,2 punktga o'sdi. O'tgan chorakka nisbatan eng katta ulushni umumiy iqtisodiy ahvoli qoniqarli bo'lgan korxonalar tashkil etadi.

Oxirgi yillik hisobotida mahsulot sotishdan sof tushumga ega bo'lgan mikrofirma va kichik korxonalarning 2019 yil III va IV choragi bo'yicha iqtisodiy ahvolni baholash, %




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2019 yil IV choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (ish va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, o'tgan yilning shu davriga nisbatan qurulish korxonalari uchun qulay iqtisodiy holat yaxshilandi va ularning bahosi o'tgan yilning mos davriga nisbatan qurulish korxonalarida 15,5 punktga, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi korxonalarida 6,6 punktga hamda savdo korxonalarida 0,2 punktga o'sdi.

Shu bilan birga, boshqa faoliyat korxonalari o'ttasida umumiy iqtisodiy holatning ijobiy bahosi pasayishi kuzatildi.

Joriy yilning IV choragida iqtisodiy faoliyatning deyarli barcha turlarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan iqtisodiy ahvolni qoniqarsiz deb baholaydigan korxonalar ulushuning o'sishi kuzatildi.

Eng katta ulushni umumiy iqtisodiy ahvoli qoniqarli deb topilgan korxonalar tashkil qiladi.

Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo'lgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2018 – 2019 yillar IV chorakdagi iqtisodiy ahvolini baholash, %




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2019 yil IV choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (ish va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra joriy yilning o'tgan choragiga nisbatan iqtisodiy vaziyatni yaqin uch oyda yaxshilashga ishongan korxonalar ulushi barcha yo'nalishlarda pasayganligini ko'rishimiz mumkin.

Shu bilan birga, o'tgan chorak bilan taqqoslaganda, faoliyatning deyarli barcha turlari bo'yicha yaqin uch oyda ularning iqtisodiy ahvoli o'zgarishsiz qolishiga ishongan korxonalar ulushi o'sdi.

Yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyat yomonlashishini kutayotgan korxonalar ulushi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 3,5 punktga, sanoatda 1,2 punktga, savdoda 0,4 punktga, xizmatlar sohasida 1,3 punktga oshdi.



Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo'lgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2019 yil III va IV choraklardagi iqtisodiy ahvolining yaqin uch oyda baholanishi %



Yaxshilanish



O'zgarishsiz




Yomonlashish

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2019 yilning IV choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (ish va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaqin uch oyda iqtisodiy ahvolni yaxshilanishiga ishongan qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi korxonalarining ulushi - 2,2 punktga hamda qurilish korxonalarining ulushi - 11,5 punktga oshgan.

Shu bilan birga, o'tgan yil bilan taqqoslaganda, faoliyatning savdo yo'nalishi bo'yicha yaqin uch oyda ularning iqtisodiy ahvoli o'zgarishsiz qolishiga ishongan korxonalar ulushi 17,5 punktga, sanoat korxonalari ulushi – 19,8 punktga, xizmatlar sohasidagi korxonalar ulushi – 16,4 punktga o'sdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha barha korxonalarda yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyat yomonlashishini kutayotgan korxonalar ulushi oshganligi kuzatildi.


Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo'lган korxonalarning 2018 - 2019 yillar IV chorakdagi iqtisodiy ahvolining yaqin uch oyda baholanishi,%






2019 yil IV choragi yakunlariga ko'ra yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati kuzatildi, unda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 101 ta respondentlar qatnashgan. Shundan sanoat korxonalari – 26 ta (ishtirok etgan respondentlarning umumiy sonining 25,7%), qurilish – 8 ta (7,9%), savdo – 45 ta (44,6%) va xizmatlar – 19 ta (18,8%), qishloq, o'rmon va baliq ho'jaligi – 3 ta (3,0%).

2019 yil IV chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi






2019 yil IV chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarining hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




2019 yil IV chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarining hududlar bo'yicha taqsimlanishi, %



Joriy yilda tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar kuzatuvi ma'lumotlariga ko'rta, 2019 yilning IV choragida qulay iqtisodiy holat sanoat korxonalarida yaxshilandi va joriy yilning o'tgan choragiga nisbatan ishlarning yaxshilanishi va ularning bahosi – 16,7 punktga, savdo korxonalarida – 4,4 punktga, qurilishda – 6,3 punktga oshdi.

Joriy yilning IV choragida shu yilning III choragiga nisbatan taqqoslaganda iqtisodiy ahvolni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar ulushi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 33,3 punktga o'sishi kuzatildi.

2019 yil III va IV choraklardagi yangi tashkil etilgan korxonalarning iqtisodiy ahvolini baholash, %




Joriy yilda tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar kuzatuvi ma'lumotlariga ko'ra, 2019 yilning IV choragida sanoat korxonalari ning qulay iqtisodiy holati yaxshilandi va ularning bahosi 2018 yilning IV choragiga nisbatan 7,9 punktga, xizmatlar sohasida 6,3 punktga ko'paydi.

Shu bilan birga, Joriy yilning IV choragida o'tgan yilning IV choragiga nisbatan iqtisodiy holatini qoniqarli deb baholaydigan korxonalar ulushining qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 16,7 punktga, qurulishda 21,2 punktga va savdoda 1,5 punktga o'sishi kuzatildi.

Joriy yilning IV choragida o'tgan yilning IV choragiga nisbatan iqtisodiy holatni qoniqarsiz deb baholaydigan qurilish (7,7 punktga), savdo (1,5 punktga) hamda xizmatlar sohasi (4,4 punktga) faoliyati bo'yicha korxonalar ulushining pasayishi kuzatildi.



2018 - 2019 yillar IV chorakdagi yangi tashkil etilgan korxonalarning iqtisodiy ahvolini baholash, %




Joriy yilda tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati kuzatuvi natijalariga ko'r'a 2019 yilning IV choragi joriy yilning o'tgan choragi bilan taqqoslaganda, yaqin uch oyda iqtisodiy ahvolni yaxshilashga ishongan barcha faoliyat turidagi korxonalar ulushi o'sganligini ko'rishimiz mumkin.

Shu bilan birga, o'tgan chorak bilan taqqoslaganda, yaqin uch oydagisi iqtisodiy ahvoli o'tgan chorakka nisbatan o'zgarishsiz qoladi deb hisoblaydigan korxonalarning barcha faoliyat turlari bo'yicha ulushi kamaydi.

Yaqin kelajakda iqtisodiy ahvoli yomonlashishini kutayotgan korxonalar ulushi sanoatda (1,4 punktga) va savdoda (2,2 punktga) oshdi.

2019 yil III va IV choragida yangi tashkil etilgan korxonalarning yaqin uch oyda iqtisodiy ahvolini baholash, %



Joriy yilda tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati kuzatuvi natijalariga ko'ra 2019 yilning IV choragi o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda, yaqin uch oy ichidada iqtisodiy vaziyatni yaxshilashga ishongan: qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi ulushi - 16,7 punktga, sanoat korxonalari – 12,6 punktga, qurilish korxonalari 28,8 punktga, savdoda 11,1 punktga va xizmatlar sohasida 1,5 punktga oshganligi kuzatildi.

Shuningdek, o'tgan yil bilan taqqoslaganda, yaqin uch oydagisi iqtisodiy ahvoli o'tgan yilga nisbatan o'zgarmaydi deb hisoblaydigan barcha faoliyat turlari bo'yicha korxonalar ulushi kamaydi.

Yaqin kelajakda iqtisodiy ahvolini yomonlashishini kutayotgan korxonalar ulushi sanoat yo'nalishidagi korxonalarda (3,8 punktdga) hamda savdo korxonalarida 2,2 punktga oshdi.

